



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**HARMONIZATION OF FOREIGN TRADE REGULATION
PROCESSES WITH THE REQUIREMENTS OF THE WORLD
TRADE ORGANIZATION: UZBEKISTAN’S EXPERIENCE AND
ANALYTICAL APPROACH**

Jumaboyev Ixtiyor Solijon o‘g‘li

4th-year Cadet Customs Institute

Scientific Supervisor: Alimammedov Shuxrat Rixsibayevich

Head of the Department of Customs Regulation and Customs Payments Customs
Institute

Abstract

This scientific article provides a comprehensive analysis of the foreign trade activities of the Republic of Uzbekistan, its trade regulation system, and the processes of harmonization with the requirements of the World Trade Organization. During the research, national foreign trade policy, customs administration, tariff and non-tariff instruments, as well as the level of implementation of international trade standards were examined on the basis of statistical and analytical data.

The article identifies existing problems in the development of foreign trade and develops scientifically grounded proposals aimed at overcoming them.

Keywords: foreign trade, WTO, tariff policy, non-tariff measures, customs administration, export, import, trade policy, economic integration

**TASHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISH JARAYONLARINI JAHON SAVDO
TASHKILOTI TALABLARIGA UYG‘UNLASHTIRISH: O‘ZBEKISTON
TAJRIBASI VA TAHLILY YONDASHUV**

Jumaboyev Ixtiyor Solijon o‘g‘li



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Bojxona instituti, 4-kurs kursanti

Ilmiy rahbar: Alimuhammedov Shuxrat Rixsibayevich

Bojxona instituti, Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari kafedrasini boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati, uni tartibga solish tizimi hamda Jahon savdo tashkiloti (JST) talablariga uyg‘unlashuv jarayonlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida milliy tashqi savdo siyosati, bojxona ma‘murchiligi, tarif va notarif vositalar, shuningdek, xalqaro savdo standartlarini implementatsiya qilish darajasi statistik va tahliliy ma‘lumotlar asosida o‘rganilgan. Maqolada tashqi savdoni rivojlantirish bo‘yicha mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, JST, tarif siyosati, notarif choralar, bojxona ma‘murchiligi, eksport, import, savdo siyosati, iqtisodiy integratsiya

Kirish: Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida xalqaro savdo tizimi jahon iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllanmoqda. So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, global savdo hajmi 30 trillion AQSh dollaridan oshgan bo‘lib, uning o‘sish sur‘ati yiliga o‘rtacha 4–5 foizni tashkil etmoqda. Ushbu jarayonlar milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasi va tashqi savdo siyosatining samaradorligiga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida ham tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada oshib, 2023-yilda 60 milliard AQSh dollaridan ortdi. Bu esa mamlakatning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv jarayonlari jadallashganini ko‘rsatadi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozorni zarur mahsulotlar bilan ta’minlash hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Tashqi savdo davlatning jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuvining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, eksport va import operatsiyalari orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatining o‘shishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi globallashtirish sharoitida tashqi savdo davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda

Tashqi savdo faoliyati deganda mamlakat rezidentlari va norezidentlari o‘rtasida tovarlar, ishlar, xizmatlar, intellektual mulk obyektlari hamda kapital harakati bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tushuniladi. Tashqi savdo eksport va import operatsiyalarini o‘z ichiga oladi. Eksport mamlakat hududida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning xorijiy bozorlarga chiqarilishini anglatadi, import esa xorijiy davlatlardan ichki bozor ehtiyojlari uchun mahsulot, xomashyo, uskunalar va xizmatlarning olib kirilishidir. Ushbu jarayonlar davlat iqtisodiyotining rivojlanish sur’ati, valyuta tushumlari, investitsion jozibadorlik va xalqaro savdo balansiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston tashqi savdo tizimi markazlashgan boshqaruvga asoslangan bo‘lib, eksport-import operatsiyalarining asosiy qismi davlat nazorati ostida amalga oshirilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat asosan davlat korxonalarini va maxsus vakolatli tashkilotlar orqali boshqarilgan. Biroq bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish, xususiyl sektorning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xalqaro savdo munosabatlarini liberallashtirish bo‘yicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish siyosati doirasida tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratildi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, eksport-import operatsiyalarining soddalashtirilishi, bojxona tizimining raqamlashtirilishi, investorlar uchun qulay sharoit yaratilishi hamda tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining kengaytirilishi ushbu yo‘nalishdagi eng muhim islohotlardan biri bo‘ldi. Natijada mamlakat tashqi savdo aylanmasi sezilarli darajada oshdi va eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi ko‘paydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston tashqi savdo siyosatining asosiy maqsadi eksport salohiyatini oshirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, import tarkibini maqbullashtirish hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iboratdir. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi texnologiyalarni olib kirish va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarida faol ishtirok etish ham tashqi savdo siyosatining ustuvor vazifalari hisoblanadi.

O‘zbekiston eksport tarkibida an’anaviy ravishda paxta tolasi, rangli metallar, oltin, tabiiy gaz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari muhim o‘rin tutgan bo‘lsa, hozirgi davrda to‘qimachilik mahsulotlari, tayyor kiyim-kechak, avtomobil sanoati mahsulotlari, elektrotexnika buyumlari, kimyo sanoati mahsulotlari, farmatsevtika mahsulotlari hamda xizmatlar eksporti tobora kengayib bormoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish tendensiyasi kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Import tarkibida esa asosan sanoat uskunalari, texnologik jihozlar, energetika resurslari, farmatsevtika mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyoviy moddalar va iste‘mol tovarlari muhim o‘rin egallaydi. Importning katta qismi ishlab chiqarish



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

jarayonini modernizatsiya qilish va ichki bozor talabini qondirishga qaratilgan bo‘lib, bu iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tashqi savdo faoliyatining samarali amalga oshirilishi ko‘p jihatdan uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlariga bog‘liqdir. Tashqi savdoni tartibga solish — bu davlat tomonidan eksport-import operatsiyalarini boshqarish, ichki bozorni himoya qilish, milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, strategik tovarlar harakatini nazorat qilish hamda xalqaro savdo majburiyatlarini bajarishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar tizimidir.

Mazkur tartibga solishning asosiy maqsadi ichki bozor barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, savdo balansini muvozanatda saqlash, adolatli raqobat muhitini yaratish hamda milliy manfaatlarni himoya qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, tashqi savdo siyosati xalqaro majburiyatlar va JST tamoyillari bilan uyg‘un holda olib borilishi zarur.

O‘zbekistonda tashqi savdoni tartibga solish tizimi bir nechta vakolatli davlat organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi. Jumladan, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tashqi savdo siyosatini ishlab chiqish, eksportni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha asosiy vakolatli organ hisoblanadi. Davlat bojxona qo‘mitasi esa tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatini nazorat qilish, bojxona rasmiylashtiruvini, bojxona to‘lovlarini undirish va bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Bundan tashqari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, Soliq qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, Sanitariya-epidemiologiya xizmati, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi kabi organlar ham tashqi savdo tizimining muhim subyektlari hisoblanadi. Ushbu organlar



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya nazorati, valyuta nazorati, soliqqa tortish va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshiradi.

Tashqi savdoni tartibga solish vositalari asosan tarif va notarif choralar orqali amalga oshiriladi. Tarif tartibga solish vositalariga bojxona bojlari, import va eksport bojlari, aksiz soliqlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa yig‘imlar kiradi. Ushbu vositalar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish, ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va ayrim strategik tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Masalan, import bojlari ayrim mahsulotlar bo‘yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, eksport bojlari ayrim strategik resurslarning haddan tashqari tashqariga chiqarilishini cheklash maqsadida qo‘llanilishi mumkin. Biroq JST tamoyillariga ko‘ra tarif siyosati shaffof, asosli va diskriminatsiyasiz bo‘lishi lozim.

Notarif tartibga solish vositalari esa kvotalash, litsenziyalash, sertifikatlashtirish, texnik reglamentlar, sanitariya va fitosanitariya nazorati, import va eksportga qo‘yiladigan vaqtinchalik cheklovlar, ruxsat berish tizimlari va davlat standartlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu vositalar mahsulot sifati va xavfsizligini ta‘minlash, ekologik barqarorlikni saqlash, aholining sog‘lig‘ini himoya qilish hamda milliy xavfsizlik manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan.

Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari importida sanitariya va fitosanitariya nazorati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sifatsiz yoki zararli mahsulotlarning ichki bozorga kirib kelishini oldini oladi. Shuningdek, strategik mahsulotlar eksportida litsenziyalash va kvotalash mexanizmlari qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tashqi savdo tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, bojxona tizimida elektron deklaratsiya, masofaviy bojxona nazorati, xavfni boshqarish tizimi,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

“Yagona darcha” tamoyili va avtomatlashtirilgan ruxsat berish mexanizmlari joriy etildi. Bu esa eksport-import operatsiyalarini tezlashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik yaratishga xizmat qilmoqda.

“Yagona darcha” tizimi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga barcha zarur ruxsatnomalar va hujjatlarni yagona elektron platforma orqali rasmiylashtirish imkonini beradi. Ushbu tizim inson omilini kamaytirish, korrupsion holatlarning oldini olish va davlat xizmatlari sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni tashqi savdo tizimini yanada chuqur isloh qilishni talab etmoqda. JSTga a‘zolik mamlakatdan bojxona tariflarini optimallashtirish, notarif cheklovlarni kamaytirish, savdo siyosatining shaffofligini ta‘minlash, diskriminatsiyasizlik tamoyiliga rioya qilish hamda milliy qonunchilikni xalqaro savdo standartlariga moslashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ular tashqi savdo samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, ayrim ma‘muriy tartib-taomillarning murakkabligi, ruxsat berish jarayonlarining ortiqcha davomiyligi, ayrim texnik reglamentlarning xalqaro standartlarga to‘liq mos emasligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi va transport infratuzilmasidagi ayrim kamchiliklar tashqi savdo faoliyatining to‘liq samarali amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, eksport qiluvchi korxonalar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, sug‘urta tizimini takomillashtirish, xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga integratsiyani kengaytirish ham dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

O‘zbekiston bojxona ma‘murchiligi sohasidagi islohotlar JSTga a‘zo bo‘lishni rag‘batlantirish, mamlakatning tashqi savdo va investitsiyalarni rivojlantirish maqsadida muhim qadam hisoblanadi. Bu sohada amalga oshirilgan islohotlar o‘zaro ta’sir ko‘rsatadigan jihatdan keng vaqt o‘tkazib kelmoqda. Quyidagi muhim qadamlar uchun ko‘zdan kechirish muhim:

1. Tashqi savdo chegaralari va ruxsatnoma tartibi: O‘zbekiston hukumati tomonidan O‘zbekiston bojxonalari va maxsus boshqaruvchilari uchun tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish uchun yangi chegaralar va ruxsatnoma tartibi ishlab chiqilgan. Bu qadam O‘zbekiston bojxonalari uchun keng imkoniyatlarni ochdi va xalqaro tashqi savdo tizimiga integratsiyani rag‘batlantirdi.

2. Xalqaro marketing va reklama kampaniyalari: JSTga a‘zo bo‘lish jarayonida O‘zbekiston bojxonalari va ularning mahsulotlari dunyoda keng tarqalgan. Shuningdek, O‘zbekistonning bojxonalarini dunyoda marka sifatida taqdim etish uchun xalqaro marketing va reklama kampaniyalari amalga oshirilgan. Bu, mamlakatning ekspertiza sifatida olinishini oshirdi va xaridorlar ehtiyojlarini qondirishga yordam berdi.

3. Investitsiyalarni jalb etishning rag‘batlantirilishi: O‘zbekiston bojxonalarining rivojlantirilishi va xalqaro savdoda qatnashishlarini rag‘batlantirish uchun investitsiyalar jalb etishni rag‘batlantirishga o‘z hissasi berildi. Bunga investitsiya qilish muomalasi, bu sohada faoliyat ko‘rsatuvchilar uchun yagona imtiyozlar, soliq sohasida istisno va boshqa iqtisodiy va huquqiy shartlar taqdim etildi.

4. Infrastruktura va logistika tizimlarini rivojlantirish: Xalqaro tashqi savdo rivojlantirish uchun mamlakatning infrastruktura va logistika tizimlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Transport, taminot, va tijorat markazlarining rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jarayonlarda katta hissa qo‘llandi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

5. Hukumatiy ta’minot va ko‘rsatkichlar: Hukumatiy ta’minot va ko‘rsatkichlar, masalaning davlat xarajatlarini kamaytirish, soliq tizimi to‘g‘risidagi islohotlar va tashqi savdo operatsiyalarini qulayroq qilishni o‘z ichiga olgan.

Bu islohotlar o‘zbekiston bojxonalarini uchun yangi imkoniyatlarni ochib, ularga xalqaro savdo tizimiga integratsiyani rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular tashqi savdo bo‘yicha mamlakatni yanada atraktiv va to‘siq qilishga yordam berishi kutilmoqda.

Bojxona sohasi JST bitimlari va qoidalariga uyg‘unlashtirish JSTga a‘zolik masalalarini jadallashtirishning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a‘zolikka tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amalga oshirilayotgan bojxona ma‘muriyatidagi islohotlar ko‘p qirrali bo‘lib, samaradorlik, shaffoflik va xalqaro savdo me‘yorlariga rioya qilishni takomillashtirishga qaratilgan. O‘zbekiston jarayonlarni soddalashtirish va transchegaraviy savdo samaradorligini oshirish uchun bojxona infratuzilmasini modernizatsiya qilishga sarmoya kiritdi. Bunda bojxona nazorati va boshqaruvi uchun elektron bojxona deklaratsiyasi va tovarlarni tekshirishning avtomatlashtirilgan tizimlari kabi yangi texnologiyalarni joriy etish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi qayta ko‘rib chiqilgan Kioto Konventsiyaga 2021-yil 16-fevral kuni 127-a‘zo davlat sifatida ro‘yxatdan o‘tdi. Mazkur konventsiya qoidalariga asosan uning normalari O‘zbekiston Respublikasi uchun 2021-yil 16-may kundan kuchga kirdi.

Bosh ilovadagi 121 ta standartdan, 94 tasi (78 foizi) implementatsiya qilingan va 27 tasi (22 foiz) implementatsiya qilinmagan.

Maxsus ilovadagi 393 ta standartdan 341 tasi (86 foizi) implementatsiya qilingan va 52 tasi (14 foizi) implementatsiya qilinmagan.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Milliy qonunchilikda implementatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar:

✓ Milliy qonunchilikni Bitimga muvofiqqligini aniqlash maqsadida 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va muayyan ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan:

✓ 2019-yil 1-mart - bojxona nazorati Xavfni boshqarish tizimi yordamida soddalashtirilgan tartibda bojxona nazoratidan o‘tkazilmoqda (2020-yil 1-iyundan avto va 2021-yil 30-iyundan temir yo‘l chegara postlarida ishga tushirilgan);

✓ 2019-yil 29-aprel - vakolatli iqtisodiy operator instituti joriy etildi;

✓ 2020-yil 1-yanvar - “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi ishga tushirildi (tizim orqali 12 ta vakolatli idoralarning 60 turdagi ruxsatnomalari elektron shaklda taqdim etilmoqda);

✓ Prezidentimizning 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son “Bojxona ma’muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” farmoni qabul qilindi;

✓ Prezidentimizning 2021-yilda 10-sentabrdagi PF-6310-son, “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” farmoni qabul qilindi;

✓ 2021-yil 1-yanvar - bojxona yig‘imlari stavkalari tasdiqlandi;

✓ 2021-yil 1-may - bojxona auditi instituti joriy etildi;

✓ 2022-yil 1-yanvar - bojxona to‘lovlari bo‘yicha dastlabki qaror berish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

✓ 2022-yil 6-aprel Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 160-son qarori tasdiqlandi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

✓ Bitim qoidalarini muvofiqlashtirish va “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga jozibadorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PF-115-son farmoni va Bojxona kodeksiga tegishli o‘zgartishlar kiritildi.

✓ Sohani raqamlashtirish maqsadida shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son farmoni qabul qilindi.

Milliy qonunchilikda implementatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar:

Bosh ilova

✓ Assosiy tushunchalarni muvofiqlashtirish;

Bojxona to‘lovlari yo‘nalishida:

✓ Bojxona ekspertiza natijalari yakuniga yetkazilmagan va bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlagan holatlarda tovarlarni chiqarib yuborish (*Bosh ilovaning 3.42. Standarti*)

✓ Tovarlarini chiqarib yuborilgandan so‘ng to‘lovlarni kechiktirib to‘lashning eng kamida 10 kun etib belgilash va ushbu muddatda foizlar hisoblamaslik (*Bosh ilovaning 4.9 Standarti*);

✓ Qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarning undirilmaydigan eng kam miqdorini belgilash (*Bosh ilovaning 4.14 Standarti*);

✓ Ortiqcha undirilgan bojxona to‘lovlarning qaytarilmaydigan eng kam miqdorini belgilash (*Bosh ilovaning 4.24 Standarti*);

✓ Bosh kafolatdan foydalanish amaliyotini joriy etish (*Bosh ilovaning 5.5 Standarti*).

Bojxona nazorati va bojxona tartib tamoillarini soddalashtirish yo‘nalishida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

✓ Bojxona tartibotlarini soddalashtirish maqsadida bojxona organlari umumiy chegaradagi nazorat nuqtalarida bojxona ma'muriyatlari imkoni boricha birgalikda nazoratni amalga oshiradilar (*Bosh ilovaning 3.4 O'tish davri standarti*);

✓ Vakolatli iqtisodiy operatorlar uchun belgilangan imtiyoz va shartlarni Konventsiya talablari asosida takomillashtirib borish (*Bosh ilovaning 3.32 O'tish davri standarti*);

✓ Tirik hayvonlar va tez buziladigan tovarlarni ustuvor tartibda bojxona ko'rigidan o'tkazishni belgilovchi normani Bojxona kodeksiga kiritish (*Bosh ilovaning 3.34 Standarti*);

✓ Belgilangan muddatda deklaratsiyalanmagan va huquqbuzarlik ashyosi bo'lmagan tovarlarni realizatsiya qilish (*Bosh ilovaning 3.45 Standarti*);

✓ Bojxona auditi tizimlari asoslangan bojxona nazoratini amalga oshirish (*Bosh ilovaning 6.6 Standarti*);

✓ Bojxona xizmati uchinchi shaxs ishtirokidagi operatsiyalarni o'tkazishga tayyor bo'lmagan shartlarni belgilaydi (*Bosh ilovaning 8.6 Standarti*).

Maxsus ilova

✓ Bojxona kodeksidagi Vaqtinchalik saqlash bojxona rejimini bojxona operatsiyasi sifatida qabul qilish (*“A” Maxsus ilovasining 2-bobi*);

✓ Tovarlarni reimport bojxona rejimiga joylashtirishda belgilangan shartlarni soddalashtirish (*“V” Maxsus ilovasining 2-bobi, 4 Standarti*);

✓ Milliy qonunchilikda import bojlari va soliqlardan ozod etiladigan tovarlar ro'yxatini Konventsiya qoidalari asosida ko'rib chiqish (*“V” Maxsus ilovasining 3-bobi, 7 Amaliyotda qo'llash uchun tavsiyasi*);

✓ Bojxona kodeksidagi Erkin ombor va Erkin bojxona zonasi bojxona rejimlarini Konventsiya qoidalariga muvofiqlashtirish. O'zbekiston Respublikasining “Maxsus



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunini Konventsiya qoidalariga muvofiqligini o‘rganib chiqish (“D” Maxsus ilovasi);

- ✓ Tranzit bilan bog‘liq tartibotlarni muvofiqlashtirish (“E” Maxsus ilovasi);
- ✓ Tovarlarini qayta ishlash bilan bog‘liq tartibotlarni muvofiqlashtirish (“F” Maxsus ilovasi);
- ✓ Vaqtincha olib kirilgan tovarlarni bir yoki bir necha partiyalarda reeksport qilish imkonini berish (“G” Maxsus ilovasining 1-bobi, 18 Standarti);
- ✓ Maxsus bojxona protseduralari (“J” Maxsus ilovasi) (*shaxsiy foydalanish, kuzatib borilmaydigan bagaj, pochta jo‘natmalari, norezidentlar tomonidan shasiy avtotransport vositalarini olib kirish va boshqalar*).

Bu islohotlar savdodagi to‘siqlarni kamaytirish, savdo xarajatlarini kamaytirish va O‘zbekistonni xorijiy sarmoyalar uchun jozibador joyga aylantirishga qaratilgan. Bojxona ma‘muriyatchiligini JST standartlariga moslashtirish orqali O‘zbekiston o‘zining global savdo tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirishni maqsad qilgan, bu esa savdo hajmining

Bojxona ma‘muriyatchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish talablarini qondirish borasidagi keng ko‘lamli sa‘y-harakatlarining muhim qismi bo‘lib, mamlakat a‘zo bo‘lishga yaqinlashgan sari rivojlanishda davom etishi mumkin.

Savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimning quyidagi moddalari milliy qonunchiligimizga implimentatsiya qilindi:

1.1, 1.2, 2.1, 2.2-moddalar: normativ-huquqiy hujjatlarni e‘lon qilish, kuchga kirishdan oldin muhokama qilish, maslahat berish;

4-modda: shikoyat berish va qayta ko‘rib chiqish;

5.3-modda: ekspertiza o‘tkazish;



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

6.3-modda: jarimalarni qo‘llash;

7.2-modda: elektron to‘lovni amalga oshirish;

7.9-modda: tez buziladigan tovarlar;

8-modda: chegaradagi idoralarning hamkorligi;

9-modda: bojxona nazorati ostida tavarlarni tashish;

10.5-modda: tovarlarni yuklashdan oldingi tekshiruv;

10.6-modda: bojxona brokerlaridan foydalanish;

10.7-modda: chegaradagi tartibolar va hujjatlarga bo‘lgan talablar;

10.9-modda: tovarlarni vaqtincha olib kirish, tovarni qayta ishlash;

12-modda: bojxona hamkorligi;

23.2-modda: savdo tartibotlari bo‘yicha milliy qo‘mita.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning tashqi savdo faoliyati mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri bo‘lib, uni samarali tartibga solish iqtisodiy barqarorlik, eksport salohiyatining oshishi, investitsion jozibadorlikning kuchayishi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tashqi savdo tizimini Jahon savdo tashkiloti talablariga moslashtirish O‘zbekistonning global iqtisodiy makondagi o‘rnini mustahkamlash, xalqaro savdo munosabatlarida teng huquqli ishtirokini ta’minlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Shunga qaramay, quyidagi muammolar mavjud:

- ayrim notarif to‘siqlarning murakkabligi
- ruxsat berish jarayonlarining davomiyligi
- logistika xarajatlarining yuqoriligi
- texnik reglamentlarning xalqaro standartlarga to‘liq mos emasligi
- eksportchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli emasligi



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Masalan, logistika xarajatlari ayrim eksport mahsulotlarida umumiy qiymatning 15–20% ini tashkil etadi, bu esa raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Notarif to‘siqlarni bosqichma-bosqich qisqartirish
2. Texnik reglamentlarni xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish
3. Eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish
4. Logistika infratuzilmasini rivojlantirish
5. Raqamli bojxona tizimini yanada kengaytirish
6. Kichik biznes uchun eksport platformalarini rivojlantirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Trade Organization. *World Trade Statistical Review 2023*. Geneva, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Tashqi savdo ko‘rsatkichlari*. 2024.
3. Krugman P., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. Pearson, 2018.
4. World Trade Organization. *Understanding the WTO*. Geneva, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi hisobotlari, 2022–2024.
6. World Bank. *Doing Business & Trade Facilitation Indicators*. 2023.